
"Shodlik pishiriqlari"ning ochilish marosimi bo'ldi

Qo'shtepa tumanidagi Qoraqushchi mahallasida Jahon banki, Oila va xotin qizlar qo'mitasi va "Mexrjon" nodavlat tashkiloti hamkorligida tashkil etilgan qishloq ayollarini iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan loyiha asosida tashkil etilgan "Shodlik pishiriqlari" MCHJning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

"Shodlik pishiriqlari" MCHJga Jahon banki tomonidan ajratilgan grant asosida jihozlar va uskunalar, xom-ashyo xarid qilinib, bugungi kunda aholining talabiga mos pishiriqlar tayyorlab faoliyat ko'rsatmoqda.

Ochilish marosimida tuman hokimi A.Abdullayev, Jahon banki, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi vakillari ishtirok etdilar.

Shuningdek, tadbirda Qo'shtepa tumanida shu loyiha asosida tashkil etilgan Jahon banki grantini olib faoliyatini boshlagan beshta tadbirkorlik sub'yektlarining ko'rgazmalari tashkil etildi.









2024-09-22 08:39:44